

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

23 572

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

22 765

Yangi tashkil etilgan korxonalar

4 011

(2020- yil yanvar-may oylarida)

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

8 565



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 811



Oilaviy korxonona

158



Unitar korxonona

6 959



Xususiy korxonona

26




Aksiyadorlik jamiyati

276




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidor javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



 o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

25
aksiyadorlik
jamiyati

147
unitar korxonalar

259
boshqaalar

3 651
oilaviy korxonalar

6 701
xususiy korxonalar

8 329
mas'uliyati
cheklangan jamiyat

19 112
tijorat korxonalari

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



■ o'tgan yilga nisbatan % da


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi, % da)



2020- yil yanvar-may oylarida 4 011 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 981 ta, xususiy korxonalar – 540 ta, oilaviy korxonalar – 2 335 ta, muassasalar – 36 ta va boshqalar – 119 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 3 811 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 840 taga yoki 3,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 651 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 697 taga yoki 3,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 335 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 105 taga yoki 10,2 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 8 565 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 768 taga yoki 126,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 329 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 615 taga yoki 124,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 981 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 255 taga yoki 0,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 402 tani tashkil etib, ulardan 385 tasi yoki 95,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 123 taga yoki 146,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 41 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	59	59	89	262	385
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7	9	20	74	96
Sanoat	32	32	37	70	103
Qurilish	2	1	4	14	21
Savdo	4	5	16	66	116
Tashish va saqlash	5	5	4	7	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	2	1	12	19
Axborot va aloqa	2	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	3	4
Boshqa turlar	4	4	5	15	18


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 244	4 198	5 125	6 714	8 329
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	228	314	527	693	997
Sanoat	531	672	808	1 109	1 297
Qurilish	542	698	848	1 087	1 460
Savdo	1 030	1 322	1 526	2 070	2 583
Tashish va saqlash	372	473	504	558	610
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	109	161	190	261	330
Axborot va aloqa	48	70	72	92	105
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26	34	56	80	95
Boshqa turlar	358	454	594	764	852


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	564	689	954	3 651
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	79	89	97	1 206
Sanoat	155	167	251	963
Qurilish	7	7	11	40
Savdo	99	151	226	826
Tashish va saqlash	9	12	10	21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	191	230	308	449
Axborot va aloqa	3	2	3	18
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	5	5	8
Boshqa turlar	21	26	43	120

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Surxondaryo viloyati	385	130	255
Termiz sh.	183	32	151
tumanlar:			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	20	6	14
Bandixon	x	x	x
Boysun	6	5	1
Muzrabot	13	5	8
Denov	15	7	8
Jarqo'rg'on	12	8	4
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	14	10	4
Termiz	38	14	24
Uzun	30	17	13
Sherobod	13	6	7
Sho'rchi	13	8	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahrida 183 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 47,5 %), Termiz 38 ta (9,9 %), Uzun 30 ta (7,8 %), Angor 20 ta (5,2 %), Denov 15 ta (3,9 %), Sariosiyo 14 ta (3,6 %) hamda Muzrabot, Qumqo'rg'on, Sho'rchi va Sherobod tumanlarida 13 tadan (3,4 % dan) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,2 %), Denov (11,5 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qumqo'rg'on (7,7 %), Sho'rchi (6,8 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,5 %), Qiziriq (5,2 %), Sariosiyo (5,1 %), Boysun (4,8 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,3 %) hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qumqo'rg'on (13,4 %), Termiz sh. (9,6 %), Denov (8,7 %), Jarqo'rg'on (8,3 %), Sho'rchi (8,1 %), Qiziriq (7,3 %), Sherobod (7,2 %), Uzun (5,9 %), Boysun (5,7 %), Oltinsoy (5,5 %), Termiz (5,4 %), Sariosiyo (4,1 %), Muzrabot (3,8 %), Bandixon (3,6 %) va Angor (3,4 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,2 %), Denov (9,6 %), Termiz (9,0 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Qumqo'rg'on (5,7 %), Boysun (5,7 %), Sherobod (5,7 %), Qiziriq (5,5 %), Sho'rchi (5,2 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Angor (4,2 %), Uzun (3,7 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (1,1 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatimizdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)




2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (16,2 %), Sherobod (9,5 %), Qiziriq (8,5 %), Jarqo'rg'on (8,1 %), Boysun (7,9 %), Denov (7,4 %), Uzun (7,0 %), Oltinsoy (7,0 %), Sho'rchi (6,5 %), Termiz (5,2 %), Termiz sh. (4,0 %), Sariosiyo (3,9 %), Muzrabot (3,2 %), Bandixon (2,9 %) va Angor (2,7 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.